



TANQIDIY NAZAR, TAHLILYI TAFAKKUR VA INNOVATION G'oyalar



O'SMIRLIK DAVRIDA MAKTAB TA'LIMIGA NISBATAN EMOTSIONAL MUNOSABATNING SHAKLLANISHIGA TA'SIR QILUVCHI OMIL SIFATIDA SHAXSLARARO MUNOSABATLAR

Makhmudov Siroj

Shahrisabz davlat pedagogika instituti mustaqil tadqiqotchisi

Shaxsning shakllanish jarayonini u faoliyat yuritayotgan jamiyat va ishtirok etayotgan munosabatlar tizimidan ajratib bo'lmaydi.

Shaxslararo munosabatlarning tabiatini umumiylashtirishga ega. Ularda insonning individual sifatlari namoyon bo'ladi. Uning emotsiyalari, intellektual qobiliyatlar ham jamiyat qoidalarini o'zlashtirishi orqali ochiladi. Shaxslararo munosabatlarda inson jamiyatda organini yana jamiyatga berish orqali ifodalaydi. Insonning faoliyati, uning harakatlari shaxslararo munosabatlarning muhim qismini tashkil etadi.

Bolalar bolalar bog'chasida, sinfda, do'stlar davrasida bo'lishi – bularning barchasi shaxs sifatida shakllanishi, o'zini anglash va boshqalar bilan munosabat tizimida baholanishini ta'minlaydi. Bola turli xil munosabatlar tizimida yashaydi, ulg'ayadi va rivojlanadi. U ijtimoiy-tarixiy tajribalarni bog'cha yoshidan boshlab o'rganganida, uning shaxs sifatida shakllanishi, ya'ni ijtimoiylashuvi boshlanadi.

Ijtimoiylashuv manbalari avvalo – oila, bog'cha, maktabdagisi jamoa, kitoblar, televizor va boshqa guruhlar bo'lib, ularning har biri turlicha ahamiyatga ega.

L.S. Vygotskiy ham shaxslararo munosabatlardagi asosiy vosita – bu muloqot jarayoni ekanini ta'kidlaydi. Uning fikricha, muloqotda dastlabki vosita – bu xatti-harakatdir, keyinchalik xatti-harakat o'zi muloqot vositasiga aylanadi. Chunki inson yolg'iz qolganida ham muloqot funksiyasini saqlab qoladi.

Shuning uchun L.S. Vygotskiyning xulq-atvor va shaxslararo munosabatlar psixologiyasiga oid fikrlari juda muhimdir. Chunki bu fikrlarda insonning ijtimoiylashuv jarayonida xulq-atvori hal qiluvchi omil sifatida ko'rsatiladi, va bu jarayonning shaxs shakllanishidagi o'rni cheksiz ekanligi ayon bo'ladi [1].

V.N. Myasishchev asarlari tahlilidan ko'rindan, muloqot jarayoni faqatgina shaxsning xarakteri, qiziqishlari va qobiliyatlariga ta'sir ko'rsatibgina qolmay, balki suhbattoshlarning ruhiy jarayonlari bilan ham bog'liqdir. Shuning uchun Myasishchev ishlarida xulq-atvorning psixologik tuzilmasi va muloqot ishtirokchilarining ruhiy holatlari o'rtasidagi o'zaro bog'liqlik ochib berilgan [2].

T. Leary-Sobchik tomonidan takomillashtirilgan shaxslararo munosabatlar diagnostikasi usuli shaxslararo va ichki ziddiyatlar tuzilishini o'rganishda qulay hisoblanadi. Tajribalar shuni ko'rsatadiki, real "Men" va ideal "Men" o'rtasidagi jiddiy nomuvofiqlik shaxs ichki dissonansini bildiradi va nizoli xatti-harakatlarga sabab bo'ladi.

Mazkur metodika boshqa psixodiagnostik usullardan shuning bilan ajralib turadiki, u shaxsiy baholash tizimidagi nomuvofiqliklarni aniqlovchi yagona vositadir.





TANQIDIY NAZAR, TAHLILYI TAFAKKUR VA INNOVATSION G‘OYALAR



U motivatsion xatoliklar va tadqiqotchining subyektiv qarashlaridan qisman holidir. T. Leary tomonidan ishlab chiqilgan dastlabki metodika boshqa tadqiqotlar bilan solishtirish orqali asoslangan. L.N. Sobchik esa bu metodikani sport jamoalari, talabalar guruhlari kabi kichik guruhlarda sinab ko‘rib, so‘z materiallarini moslashtirgan.

Ammo amaliyat shuni ko‘rsatadiki, ayrim so‘rovnoma dagi fikrlar mukammal emas va bu holat metodikani tahrirlash va takomillashtirishga undaydi.

Metodika asosida insonning boshqalar bilan o‘zaro ta’siri jarayonidagi xatti-harakatlari kuzatilib, u 8 umumiy yoki 16 aniqlashtirilgan variantlarga (oktantlarga) ajratilgan. So‘rovnoma 128 oddiy tavsiflovchi iboralardan iborat bo‘lib, unda shaxslararo xulqning turli shakllari aniqlanadi.

Tadqiqot natijalari

Metodika sinovdan o‘tkazilgan guruhda miqdoriy va sifat jihatdan tahlil qilindi. Quyidagi jadvalda shaxslararo munosabatlarning asosiy ko‘rsatkichlari keltirilgan:

- Yetakchilik ko‘rsatkichi 29% (real) va 34% (ideal). Bu o‘ziga ishonch, tashabbuskorlik, boshqaruvchilik qobiliyatlarini bildiradi. Shu bilan birga, tanqidga toqat qilmaslik, o‘ziga haddan ortiq ishonch, buyruqbozlik xususiyatlari ham namoyon bo‘lgan.
- Mustaqillik ko‘rsatkichi eng yuqori: 44% va 52%. Bu o‘z fikrida sobit turish, ko‘philik fikridan farqli yondashuvni ifodalaydi.
- To‘g‘ridan-to‘g‘ri tajovuzkorlik past ko‘rsatkichlarga ega (6% va 4%), bu ochiqlik, qat’iyatlik, lekin ba’zida jizzakilik yoki toqat qilmaslik holatlarini bildiradi.
- Ishonchsizlik (15% va 6%) – atrofdagilarga ishonchsizlik, shubha, norozilik kabi hissiyotlarning mavjudligini bildiradi.
- Uyatchanlik (19% va 7%) – kamtarlik, boshqalarga nisbatan o‘zini past baholash, aybdorlik hissining kuchaygan holatini bildiradi.
- Itoatkorlik (16% va 9%) – boshqalar fikriga to‘liq bog‘liqlik, mustaqillikning yetishmasligi sifatida talqin qilinadi.
- Hamkorlik (18% va 24%) – ijobiy shaxslararo munosabatlar, jamoa bilan birga ishlashga intilish sifatida namoyon bo‘lgan.
- Mas’uliyatli bag‘rikenglik (14% va 20%) – boshqalarga yordam berishga tayyorlik, yuqori darajadagi mas’uliyat hissi. Ba’zida bu altruizm darajasiga yetishi mumkin.

Xulosa:

Ushbu metodika asosida aniqlanganki, o‘smirlarning o‘z-o‘zini boshqarish ko‘nikmalari, shaxslararo munosabatlar tizimi bilan bevosita bog‘liq. Ayniqsa, bu o‘z-o‘zini baholash darajalari orqali yaqqol ko‘rinadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Выготский Л.С. Вопросы детской психологии. – Москва: Юрайт, 2016. – 365 с.
2. Мясищев В.Н. Психология отношений: избранные психологические труды. – Москва: Московский психолого-социальный институт, 2011. – 398 с.

